



1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 5-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

BARCHA UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA "ILM – SAODAT KALITI" SHIORI OSTIDA
"SO'NGGI QO'NG'IROQ" TADBIRLARI BO'LIB O'TDI



Ushbu son



ADABIY TAQVIM

Mirtemir va
To'ra Sulaymon

3
bet



METODIK TAVSIYA

O'zbek tilini
xorijlik talabalarga
o'rgatishda "o'zaro
munosabat" tamoyili

14
bet



TAHLIL

The image of
childhood in the
English literature

18
bet



TADQIQOT

Is'hoqxon Ibrat va
ta'lim masalasi

32
bet



В ПОМОЩЬ
ПРЕПОДАВАТЕЛЮ

О традиции и
новаторстве в
литературе

52
bet



O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida 2014-
yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan
qayta ro'yxatga
olingan
2024-yil. 5-son

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO'LAGANOVA
Yo'ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Reymov BEKKENBAUER
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIDDINOVA
Shahnoza TURNIAZOVA
Ra'no ABDUSALOMOVA
To'liqin XOLJO'RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO'JAMQULOV
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (97) 746-28-44,
(93) 554-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bo'lishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2024.28.05. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garnitursi. 10, 11 kegl. "GOLD PRINT PRESS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri Uchtepa tumani 11-mavze 43-uy. Buyurtma Adadi 7100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Adabiy taqvim	
Azizbek Turdiyev. "Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim"	3
Adabiyotshunoslik	
Mahbuba Rahmonova. Afsonalarni ilmiy jihatdan o'rganishga doir	7
Shavkatbek O'mirzaqov. Qirg'iz oqinlari ijodida suv	8
Sobir Mansurov. Dilafgorning she'riy guldastasi	11
Metodik tavsiya	
Dilnavoz Ergasheva. Using "Callan method" in a student-centered approach	12
Dilfuza Po'latova. O'zbek tilini xorijlik talabalarga o'rgatishda "o'zaro munosabat" tamoyili	14
Zayniddin Qurbonov. Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumi	15
Xadicha Muxitdinova. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganish	16
Tahlil	
Inobat Narziyeva. The image of childhood in the English literature	18
Nurislom Khursanov. Exploring the cognitive field of dramatic text: a comparative analysis of John Osborne and Harold Pinter's works	19
Zukhra Khazratova, Khurshid Abdumajitov. The problem of understanding in intercultural communication	22
Zoir Taxirov. Publitsistik uslubda baholash hukmi	24
Donoxon Zulpiyeva. Fin ta'limi: hech kim ortda qolmaydi	26
Tadqiqot	
Dilnoza Mamirova. Parsellyativ qurilmali gaplarning reklama matnlarida qo'llanilishi	27
Elyor Murtazayev. Urush mavzusi o'zbek va jahon adabiyoti talqinida	28
Nozimaxon Mamadjanova. Tanlov sinflarda chet tili fanini o'qitish masalalari	30
Mahfuza To'ychiyeva, Shahlo Naraliyeva. Is'hoqxon Ibrat va ta'lim masalasi	32
Dilnoza Mamanova. Romanlarda makon, zamon va obrazlar o'xshashligi	34
Xamro Abdullayev. Romanda milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqini	35
Zilola Shukurova. Tazkiraning o'zbek adabiyotidagi o'rni	38
Elbek Jumanov. "Ertak" so'zining etimologiyasiga doir ayrim mulohazalar	40
Kichik tadqiqot	
Dilnoza Qodirova. Adabiy ta'limda o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	41
Gulhoyo Bo'riyeva. Amerikalik bolalar yozuvchisi Dr. Syuz asarlarining O'zbekistonda taniiqlik darajasi	42
Ayjamal Jiyemuratova. Qoraqalpoq tilini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	44
Zebo Yodgorova. Bosma media tilida modal kirish so'zlar	45
Shahribonu Tohirova. Specific features of translating Uzbek complex words into English	46
Malohat Dadamirzayeva. Olam lisoniy manzarasining tarjimada ifoda etilishi	48
Методика. Опыт	
Аль-Мария Бабарахимова. Методы и приёмы развития устной речи у будущих учителей	49
В помощь преподавателю	
Кодиржон Носиров. О традиции и новаторстве в литературе	52
Гули Саломова. Критическое мышление личности в условиях межкультурных отношений	54
Языкознание	
Бибимарьям Раметова. Несколько слов о синтаксисе	57
Мадинабону Сатимова. Транспозиция в лингвистике	58
Литературоведение	
Нина Тимонина, Зарина Аманова. Образ народа в романах Федора Достоевского	60
Камила Ахмедова, Гульчехра Давлятова. Национально-культурная специфика русского детского фольклора	61
Научные исследования	
Азиза Муминова. История рекламы и этапы её развития	64
Зухриддин Нуридинов, Эльдар Гиздуллин, Нафисахон Кудбиева. Изучение русской литературы на занятиях по русскому языку как иностранному	65
Шахло Абдурахмонова, Гульчехра Давлятова. Риторика как наука и искусство	68
Замира Ахмадиллаева, Гульчехра Давлятова. Вариативность в системе грамматических норм в риторике	70
Инновационные технологии	
Саодат Исмаилова, Азиза Бедилова. Использование видеоматериалов как один из инновационных методов преподавания русского языка как иностранного	73
Мадина Шукурова. Электронные информационно-коммуникационные технологии в персонализации образовательного процесса	74
Паризод Хасанова, Ольга Ахмеджанова. Использование инновационных технологий при изучении синтаксиса на занятиях по русскому языку как неродному	76
Формы обучения	
Зумрад Ахмедова, Баходир Дехканов. Эффективные подходы в языковом обучении при подготовке студентов вузов к профессиональной деятельности	78
Барно Абдуллаева. Стратегии и практики при развитии коммуникативной компетенции при обучении русскому языку	79

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

koyachi-qahramon sifatida voqealarni xotira tarzida soʻzlab beradi va natijada adib badiiy niyatining roʻyobga chiqishiga xizmat qiladi. Bizningcha, yozuvchining “Bu togʻlar – ulugʻ togʻlar” romani bizda hali anʼanaviy realizmning imkoniyatlaridan foydalanib, milliy oʻzlikni anglash va millat dardini qalamga olish imkoniyatlari juda kengligidan dalolat beradi.

Evril Turon romanlarida milliy va umuminsoniy ruh millatning nomini qayta-qayta tilga olishi yoki qahra-

monlar nutqi va turmush tarzidagina emas, balki millat fojiasini berish, zamon bilan milliy qahramonni yuzma-yuz qilish orqali ijtimoiy illatlarni fosh eta bilishda koʻrinadi. Adib romanlari badiiy til va uslubning oʻziga xosligi, asarda tasvirlangan voqealarning tub-tubiga millat taqdiriga daxldor ijtimoiy muammolarning qoʻyilishi hamda qahramonlar qismatini milliy oʻzanda hal etish tamoyilining ustuvorligi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoʻshjonov M. Hayot va mahorat. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
2. Evril Turon. Bu togʻlar – ulugʻ togʻlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
3. Qosimov B. Olam ichra olam boʻlmoq // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 1998-yil, 1-son.

Zilola SHUKUROVA,

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

TAZKIRANING OʻZBEK ADABIYOTIDAGI OʻRNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tazkiralarning oʻzbek adabiyotidagi oʻrni haqida soʻz yuritiladi. Mumtoz adabiyotdagi tazkiralalar tahlil qilinib, shoirlar haqida qimmatli maʼlumotlar beradigan manba sifatidagi ahamiyati misollar bilan koʻrsatiladi.

Kalit soʻzlar: tazkira, shoir, Navoiy, devon, toʻplam.

Annotation. This article talks about the role of tazkiras in Uzbek literature. Tazkiras created in classical literature are analyzed and it is shown with examples that they are a source of valuable information about poets.

Keywords: tazkira, poet, Navai, divan, collection.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль тазкиры в узбекской литературе. Анализируются тазкиры, созданные в классической литературе, и на примерах показано, что они являются источником ценной информации о поэтах.

Ключевые слова: тазкира, поэт, Навои, диван, сборник.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida shoirlar hayoti va ijodi haqida maʼlumot beradigan asarlarning bir necha turi mavjud. Jumladan, tazkiralalar ijodkorning adabiyotdagi oʻrnini koʻrsatishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. M.Hamidova bu haqda fikr yuritir ekan: “Majmuat ush-shuaro va tazkiralarda muallifning shaxsiy munosabati bevosita anglashiladi” [3: 6], degan.

Tazkiralalar biror shoir, mashhur shaxs, sanʼat sohasida faoliyat yuritgan arboblarning haqidagi eng muhim maʼlumotlar toʻplami boʻlib, “Bir tomondan, unda qadimgi shoirlar eslanadi, ikkinchi tomondan, ijodini endi boshlayotgan va ikki yoki uch satr yozib, hali tanilmagan shoirlar haqida soʻz yuritiladi. Aynan ana shular kelajakda oʻz davrining mashhur shoirlari boʻlib yetishadi” [6: 11]. Tarixda sanʼat ahli, shohlar, xattotlar haqida tazkiralalar yaratilganiga guvoh boʻlish mumkin. Biz uchun adabiy tazkiralalar muhim boʻlgani bois asosiy eʼtiborni shunga qaratamiz.

“Adabiy tazkiralalar maʼlum bir davrda yashab ijod etgan shoir va adiblar hamda badiiy ijodga aloqador boʻlgan shaxslar, ularning faoliyati, yaratgan asarlari haqida maʼlumot beruvchi asardir” [7: 15]. Bunday

tazkiralarning maqsadi adabiyot ahli haqida axborot yetkazishdan iborat boʻlib, nasrda yoki nazmda yozilishi mumkin. Akademik Sh.Sirojiddinov devon, tazkira, bayozlarning oʻziga xos belgilarini izohlarkan, “Tazkiralarda biografik maʼlumotlar bilan birga sheʼrlardan parchalar, xatlardan namunalar yoki tarixiy lavhalar qorishiq keladi” [5: 42–44], deydi.

Dastlabki tazkira Abu Mansur as-Saolibiy qalamiga mansub “Yatimat ad-dahr” asari 4 qismdan iborat boʻlib, har biri 10 bobdan tashkil topgan. Uning 1–3-qismlarida Suriya, Misr, Magʻrib, Iroq, Jabal, Tabariston kabi mam-lakatlar shoirlari haqida maʼlumot berilgan. 4-qismida esa Xuroson, Movarounnahr va Xorazmda yashab ijod etgan adiblar xususida soʻz boradi. Shunga koʻra, ushbu asar yurtimizda yashab oʻtgan shoirlar toʻgʻrisida xabar beruvchi manba sifatida qimmatlidir.

Turkiy adabiyotda “Ustod Alisher Navoiydan boshlanib, birinchi marta Hasan Xoja Nisoriy tomonidan ergashilgan keyingi anʼana tazkiranavis hayot kechirgan zamon, sharoit, adabiy muhitni oʻrganish jihatidan oʻziga xos ahamiyat kasb eta boshladi. Bu yangi anʼanani XVII va XIX asrning birinchi yarmi

adabiyotida Sultonmuhammad Mutribiy, Mullo Sodiq Samarqandiy, Maleho Muhammad Amin Nasafiy va Fazliy Namangoniy davom ettirdilar. Ular o'tmishning zabardast ustodlarini zarur o'rinlarda tilga olib, asosan o'zlari ko'rgan, suhbatlashgan va ishonchli manbalarga tayanib, zamondosh qalamkashlar haqida bahs yuritdilar" [1: 30].

Avvalo, tazkiranavislikning mumtoz namunasi bo'lgan "Majolis un-nafois"ga e'tibor qaratsak. Ushbu asarni Alisher Navoiy sakkiz majlisga bo'lib, har birini aniq maqsadga ko'ra tartiblaydi. Masalan, birinchi va ikkinchi majlisda o'zigacha yashab o'tgan salafilar xususida so'z yuritisa, uchinchi majlisda o'ziga zamondosh shoirlar haqida, beshinchi va oltinchi majlis Xuroson, Xorazm, Samarqand, Sheroz kabi shaharlarda yashagan shoirlar, yettinchi majlis temuriylar sulolasi vakillari orasida nazm yozganlar to'g'risida, sakkizinchi majlis sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

Alisher Navoiy tazkiraga kiritilgan har bir shaxsning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritadi. Uning qiyofasini yorqin ko'rsatish uchun biror voqeani bayon etadi. Shu bilan birga, ta'riflanayotgan kishining she'riyatga, adabiyotga qanchalik aloqadorligini ham aytib o'tadi. Agar she'r yozgan bo'lsa, misol uchun biror bayt keltiradi. Bu an'ana Navoiydan keyin yaratilgan boshqa tazkiralarda ham saqlanib qoldi. M.Hakimovning aniqlashicha, XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyo va unga qo'shni o'lkalarda o'ttizdan ortiq tazkira tuzildi. Ularning aksariyati tadrijiy ravishda bir-birining davomi bo'lib, o'zbek va tojik adabiyotshunoslarining asosiy tadqiqot manbalaridan hisoblanadi [2: 298].

Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (1605) asari xonlar va shoirlar haqida. Shoir asarni hamd, na't, asar yozilish sababi, tazkira yozishda o'zigacha o'tgan salafilar Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Hasanxoja Nisoriyni hurmat bilan tilga olgach, yaqinda taxtga chiqqan xon Vali Muhammadxon madhini keltiradi. Ushbu asar har jihatdan qimmatli bo'lib, "O'rta Osiyo adabiy muhitining Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Eron, Turkiya, Iroq, Yaman o'lkalarida ijod qilgan shoirlar bilan ada-

biy aloqalari borasida ham aniq materiallar beradi" [4: 7]. Mazkur asarda 350 dan ziyod shoir haqida ma'lumot jamlangan bo'lib, Mutribiy ularning shoirlik bobidagi faoliyatini yoritish bilan birga, hayotida sodir bo'lgan qiziqarli voqealar bilan ham tanishtiradi. Mutribiy ham xuddi Alisher Navoiy kabi salafilar izidan borib, tazkiraning qismlarga ajratib yozadi. Shoirlarning tarjimai holiga oid ma'lumotlar hamda ijodidan namunalar beradi. Shu jihati bilan bu tazkiralor boshqa to'plamlardan farqlanadi.

1821-yili Qo'qonda Abdulkarim Fazliy Namangoniy "Majmuai shoiron" asarini yaratgan. Tazkirada hamd, na't, masnaviy, bahri tavil, qasida, g'azal, ruboiy, muxammas, musaddas, mutassa', mustazod, ta'rix, mufradot, muammo, mushoira janrlaridan namunalar keltirilgan. Kirish qismida 75 nafar shoir haqida ma'lumot beriladi. "Majmuai shoiron"ning yana bir o'ziga xos xususiyati, asarda shoirlar haqidagi biografik ma'lumotlar she'riy shaklda, aruzning mutaqqiribi musammani maqsur bahrida yozilgan. Ungacha Markaziy Osiyo hududida tuzilgan tazkiralarda bunday shakl uchramaydi. Kitobda ko'plab shoirlarning bir qofiya va radifdagi she'rlari (Amiriy g'azallariga naziralarning) keltirilishi asarni radoiful ash'or tipidagi bayozlarga yaqinlashtiradi. "Majmuai shoiron"ning ahamiyati shundaki, unda anchagina daliliy materiallar to'plangan. XIX asrning birinchi choragida adabiy oqimlar o'rtasidagi kurashga doir ma'lumotlar berilgan [1: 77].

1871-yili "Tuhfatul ahhob fi tazkira-fil-as'hob" tazkirasini yozgan Qori Rahmatullo Vozeh XVIII–XIX asrlarda Buxoro va Qo'qon xonligida yashab ijod etgan 145 nafar shoir haqida qimmatli manba yaratgan. Asarda shoirlarning taxallusi, hayoti va faoliyati, she'rlaridan namunalar berilgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, tazkiralor shoirlar va san'at ahlining hayoti va ijodidan ayrim parchalarni zikr etishni ko'zda tutadi. Asar hamd, na't, bag'ishlovlar va o'zidan oldingi salafilar vasi bilan boshlanadi. Shoirlarga tartib berishda yashagan davri, jamiyatdagi mavqeyi kabilar hisobga olinadi. Ma'lumotlar bayonida ba'zan muallifning subyektiv munosabati sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2019.
2. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. – Toshkent: Davr press, 2013.
3. Hamidova M. Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Nashrga tayyorlovchi Bekhonov I. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2013.
5. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019.
6. Норик Б.В. Библиографический словарь среднеазиатской поэзии (XVI – первая треть XVII в.). – М.: Издательский дом Марджани, 2011.
7. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.